

IMPORT BOSUVCHI TOVARLARNI ISHLAB CHIQRISHDA ULARGA BERILAYOTGAN IMTIYOZLAR

Sulxonberdiyeva Shodiya

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti

BIA-guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola import bosuvchi tovarlarni ishlab chiqarishda ularga berilgan imtiyozlar haqida. Endilikda O‘zbekiston Respublikasiga import qilinadigan tovarlarni yuklashdan avval inspeksiadan o‘tkazish ixtiyoriy asosda amalga oshiriladi. O‘zbekiston Respublikasiga import qilinadigan tovarlarni yuklashdan oldin inspeksiyaning o‘tkazish xizmatlarini ko‘rsatish xuquqiga vakolatli organ tomonidan xalqaro standartlar talablariga muvofiq akkreditatsiya qilingan inspeksiya organlari egaligi hamda bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: eksport salohiyati, soliq imtiyozlari, preferensiyalar, sug‘urtalash, eksportyor, tadbirkorlik subyekti, import, import imtiyozlari.

Hozirgi kunda davlatimiz ham iqtisodiy ham siyosiy tomondan rivojlanib borayotgani hech kimga sir emas. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2018-yil 24-mart kuni “Tashqi savdoni yanada erkinlashtirish va savdo operatsiyalarning samaradorligining oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qaror buning yaqqol misolidir. Yana bir qarorlardan biri Prezident Bojxona qo‘mitasiga imtiyoz bilan import qilingan tovarlarni korxonabay o‘rganib chiqish topshirig‘ini berdi. 2023 yilda import qilingan 20mlrd dollarlik tovarlarga salkam 60 trln so‘mlik imtiyoz berilib, ularning 3.2 trln so‘mi o‘rganilganda 13 foizi maqsadsiz qo‘llanilishi aniqlandi. Prezident 16 yanvar kuni bo‘lib o‘tgan videoselektor yig‘ilishida bojxonada bor imkoniyatlar to‘liq ishga solinmayotganini qayd etib, bojxona qo‘mitasiga imtiyoz bilan import qilingan tovarlarni korxonabay o‘rganib chiqishni topshirdi. O‘tgan yili import qilingan 20mlrd dollarlik tovarlarni salkam 60 trln so‘mlik imtiyoz qo‘llangan.¹⁵ Bularning barchasi importni qollab-quvvatlash uchunligi yaqqol ko‘rinib turibdi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish tizimida boj tarifini qollashga asoslangan usul muhim orin tutadi. Bunday usuldan foydalanish milliy ishlab chiqaruvchilar, mahalliy bozorni chet el raqobatchilaridan ximoya qilish,

¹⁵ www.lex.uz



davlat byudjetining daromad qismini t ldirish orqali mamlakatda bozor munosabatlari tanoyillarini qaror topdirish imkonyatini beradi.

O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyatini tartibga solishda boj tarifi asosini tashkil etuvchi bojxona bojidan, yani mamlakat hududiga olib kirilyotgan tovarlardan undiriladigan to'lov turidan foydalanish muhim o'rin tutadi. Boj tarifini qo'llash mexanizmini to'g'ri tanlash va undan samarali foydalanish tadbirkorlarga keng yo'l ochib berish, kichik biznesni qo'llab quvvatlash, import ornini bosuvchi tovarlarni ishlab chiqaruvchi korxonalarni rag'batlantirish, eksport uchun ishlab chiqarilayotgan tovarlarni jahon bozorlaridagi raqobatdoshlik darajasini oshirish, mamlakatimiz iqtisodiyotini jahon xojaligi iqtisodiyoti, xalqaro savdo, moliya tashkilotlari qoidalariga rioya etgan holda integratsiyalashuvini taminlabgina qolmay, mamlakatning tashqi iqtisodiy xavfsizligini ham taminlashda muhim ahamiyatga ega.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning tashabbusi bilan 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasiga muvofiq soliq tizimi isloh qilishni chuqurlashtirish hamda soliq imtiyozlarini ko'paytirish belgilandi. Moliyaviy-iqtisodiy jarayonlar shuni ko'rsatmoqdaki, mamlakatning xalqaro moliyaviy jihatdan qay darajada rivojlanganligi yohud xalqaro moliyaviy arenada tutgan o'rnini aniqlashning ko'rsatkichlaridan biri bu mamlakatning eksport va import operatsiyalarini amalga oshirish salohiyati hisoblanadi.

Jahon amaliyotida soliq imtiyozlari keng tartibda qo'llanilib, turli mamlakatlarda ular turlicha tarkibga ega. Rivojlangan davlatlar soliq tizimi amaliyotida foydalaniladigan soliq imtiyozlarining tahlili ayniqsa diqqatga sazovordir. Imtiyozlar avvalo, har bir yirik soliq turiga nisbatan qo'llanilib, ularning asl maqsadi joriy soliqlarda yaqqolroq ifodalanadi. Soliq imtiyozlarining birinchi navbatda, ishlab chiqarish va tadbirkorlikni umumiy tartibda qo'llab-quvvatlashga qaratilganligini inobatga oladigan bo'lsak, ular shuningdek, ayrim ijtimoiy masalalarni hal etishga qaratilganligi bilan ham diqqatga sazovordir.

Xorijiy mamlakatlar soliq tizimi amaliyotida qo'llaniladigan soliq imtiyozlaridan yana bir turi bu – soliqlardan to'liq ozod qilish va "soliq ta'tillari" muddatlarini o'rnatish bo'lib, bunday turdagi imtiyozlar Yevropa davlatlarida ko'proq qo'llaniladi. Masalan, Fransiyada kompaniyalarning chet elga investitsiya qilishga, yangi tadbirkorlarni rag'batlantirish uchun soliqlardan vaqtincha bo'sh bo'lgan mablag'larni tashkil qilishlari mumkin.

Finlandiyada soliqlardan investitsion soliq kreditlarini yetakchi tarmoqlardan biri bo'lgan kemasozlikni rag'batlantirish ko'zda tutilgan. Belgiyada soliqlardan ozod qilishning 10 yillik ta'tili kichik venchur firmalarini qo'llabquvvatlashga qaratilgan. Yil



mobaynida O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo aylanmasi 40,1 mlrd dollarni tashkil etdi. Jumladan, eksport hajmi qariyb \$15,5 mlrdga (+23,8%), import esa \$24,6 mlrdga (+21,2% ga) yetdi. Hisobot davrida — \$9,1 mlrd qiymatida passiv saldo qayd etildi. TSAda eksport hajmi qariyb 15,5 mlrd AQSh dollariga (23,8% ga ko'paydi) va import hajmi 24,6 mlrd AQSh dollariga (21,2% ga ko'paydi) yetdi. Hisobot davrida — 9,1 mlrd AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi. Eksport hajmining eng yuqori ko'rsatkichlari Xitoy (\$2,2 mlrd), Rossiya (\$2,5 mlrd), Qozog'iston (\$1,1 mlrd), Turkiya (\$1,3 mlrd) davlatlarida qayd etildi. Eng kam eksport hajmi esa Janubiy Koreya Respublikasi (\$41,6 mln) va Hindiston (\$29,3 mln) bilan amalga oshirilgan. Mahsulot ham xizmatlarning eng ko'pi Rossiya Federatsiyasi (\$4,9 mlrd), Qozog'iston (\$2,6 mlrd), Janubiy Koreya (\$1,9 mlrd) dan olib kelingan. Eng kam import Afg'oniston (\$7,3 mln) bilan amalga oshirildi. Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan uchta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Afg'oniston, Qirg'iz Respublikasi va Tojikiston shular jumlasidandir. Qolgan 17 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda, deyiladi qo'mita sharhida.¹⁶

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tomonidan Respublika oziq ovqat tovarlarini olib kirish bo'yicha ayrim xojalik yurutuvchi subektlarga individual bojxona, soliq va boshqa imtiyozlar, shuningdek boshqa preferensiyalar taqdim etishni nazarda tutuvchi qarorlarning qabul qilinishi taqiqlanadi. Shuningdek, 2018 yil 1 fevraldan boshlab:

-istemol tovarlarini respublika tovar xom ashyo birjalarida sotish sotib olish taqiq bekor qilinadi;

-shakar ishlab chiqaruvchilar 2019 yil 1yanvarga qadar muddatga import xom ashyosi asosida ishlab chiqarilgan hajmlar qismiga qoshilgan qiymat soliği to'lashdan ozod qilinadi.

-istemol tovarlarini tovar xom ashyo birjalarining ochiq elektron savdolarida sotish uchun ulgurji savdoni amalga oshirishga litsenziya mavjudligi talab etilmaydi.

-ulgurji savdoga litsenziya olishda eng kam ish haqining 3500 baravaridan kam bolmagan miqdorda, shundan pul mablag'lari eng kam ish haqining 1200 baravaridan kam bōlmagan miqdorda shakllantirilgan ustav fondi mavjudligi mavjudligi haqidagi talab bekor qilinadi.

-ijtimoiy ahamiyatga ega oziq ovqat maxsulotlari turlarini ichki istemol bozorida narx navoni barqarorlashtirishga ko'maklashish jamg'armasi mablag'lari xisobidan

¹⁶ MAMLAKATIMIZDA EKSPORT VA IMPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDA BERILAYOTGAN IMTIYOZLAR. Umida Otaxanova. RESEARCH AND EDUCATION ISSN: 2181-3191 VOLUME 2 | ISSUE 11 | 2023



import qilish istasno xollarda va faqat tovar xom ashyo birjalari, jumladan xorijiy birjalarning ochiq elektron savdolari tizimi orqali amalga oshiriladi.

-oziq ovqat mahsulotlarning rejalashtirilayotgan xaridi, jamg'arma mablag'lari tushumi va xarajatlari tog'risidagi batafsil axborot har oy O'zbekiston Respublikasi yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida elon qilib boriladi.

Tadbirkorlarning eksport import operatsiyalari bilan shug'ullanishda amaldagi meyoriy hujjatlar asosida ish olib borishlari kelgusidagi muvafaqqiyatlar garovidir. Bu borada barcha viloyatlarda bojxona boshqarmasi tomonidan tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilariga doimiy ravishda amaliy yordam korsatmoqda. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bilamizki barcha davlatning tashqi iqtisodiyoti, siyosatining asosiy maqsadlaridan biri bu ichki bozorini ximoya qilish va eksportni rivojlantirish bolsa, oz manfaatlaridan kelib chiqib importni liberallashtirish ham tashqi iqtisodiy xavfsizlikni taminlashning samarali instrumentlaridan biri deb xisoblasa boladi. Bularning barchasi O'zbekistonning xalqaro moliya tizimiga integratsiyalashuvi kuchayib borayotganidan dalolat beradi hamda yangi xaqaro iqtisodiy marralarga erishish va moliyaviy barqaror davlat darajasiga yetishda zamin bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik sub'ektlarining eksport salohiyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 30.09.2022 yildagi PF228-sonli Farmoni
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 16 январдаги «Мамлакатнинг озиқовқат хавфсизлигини янада таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-5303-сон фармони.
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. // «Халқ сўзи», 2017 йил 23 декабр
4. Malikov T. Soliqqa tortishning dolzarb masalalari. T.: 2000-y. 76-bet
5. MAMLAKATIMIZDA EKSPORT VA IMPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDA BERILAYOTGAN IMTIYOZLAR. Umida Otaxanova. RESEARCH AND EDUCATION ISSN: 2181-3191 VOLUME 2 | ISSUE 11 | 2023
6. www.lex.uz

